



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI REKTORINING  
BUYRUG'I**

2022 yil «31» 09

Nº 128-Sh/51

Urganch sh.

**Urganch davlat universitetning Kengashining  
2022 yil 28 sentabrdagi 2-sonli qarori ijrosini  
ta'minlash to'g'risida**

Urganch davlat universitet Kengashining 2022 yil 28 sentabrdagi 2-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida

**B U Y U R A M A N :**

1. Urganch davlat universitet Kengashining 2022 yil 28 sentabrdagi 2-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Urganch davlat universiteti va professional ta'lim muassasalarida "Korrupsiyasi soha" loyihasini amalga oshirish yuzasidan 2022-2023 yillariga mo'ljallangan "YO'L XARITASI" ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i (X.Shixova)ga:
  - Urganch davlat universiteti va professional ta'lim muassasalarida "Korrupsiyasi soha" loyihasini amalga oshirish yuzasidan 2022-2023 yillariga mo'ljallangan "YO'L XARITASI"da belgilangan chora-tadbirlarni ijrochi mas'ul xodimlar bilan birgalikda o'z muddatlarida amalga oshirilishi ta'minlansin.
4. Devonxona mudiri-(M.Satimova) ga:
  - mazkur buyruq o'rnatilgan tartibda barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari va fakultet dekanlari e'tiboriga yetkazilsin.
5. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

**Asos:** Urganch davlat universitetning Kengashining 2022 yil 28 sentabrdagi 2-sonli qarori

**Rektor**



**B.Abdullayev**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING №2-MAJLIS  
BAYONNOMASIDAN KO'CHIRMA**

2022-yil 28-sentyabr  
Urganch shahri

**Qatnashdilar:** Kengashning  
71 a'zosidan 67 a'zo

**Kengash raisi:** f-m.f.d. B.I.Abdullayev  
**Kengash kotibi:** dots. I.Sh.Atadjanov

**KUN TARTIBI:**

1...

2....

**5. Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens–nazorat” tizimini boshqarish bo‘limining 2022-2023-o’quv yili uchun “Yo’l xaritasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida**


**Eshitildi:** Kun tartibidagi mazkur masala yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens–nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i X.Shixovaning axboroti tinglandi. U o‘z ma’ruzasida bo‘limning 2022-2023-o’quv yili uchun “Yo’l xaritasi”ning mazmuni bilan kengash a’zolarini tanishtirdi. U “Yo’l xaritasi” VII bo‘im va XVI ta banddan iborat ekanligini va undan universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshiriladigan tashkiliy ishlar, mazkur yo'naliшда universitet xodimlarining malakasini oshirish, ta'lim berish jarayoni bilan bog'liq ishlarni takomillashtirish, UrDU faoliyatida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, universitet faoliyati shaffofligini ta'minlash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, UrDU tarkibidagi ichki nazorat tizimi va ichki audit xizmatini takomillashtirish va UrDU faoliyatining o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda boshqa vazifalarni amalga oshirish kabi yo'naliшда qilinadigan ishlar joy olganligi bo'yiocha batafsil ma'lumot berdi.

Shundan keyin B.Abdullayev masalani muhokama qilib “Yo’l xaritasi”ni tasdiqlash taklifini kiritdi. Ushbu masala atroflicha muhokama qilingach,

**QAROR QILINDI:**

1. Urganch davlat universiteti Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens–nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i X.Shixovaning bo‘limning 2022-2023-o’quv yili uchun “Yo’l xaritasi” bo'yicha bergen axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens–nazorat” tizimini boshqarish bo‘limining 2022-2023-o’quv yili uchun “Yo’l xaritasi” bir ovozdan tasdiqlansin.

Aslidan to'g'ri



Kengash kotibi

dots. I.Atadjanov